

**ESHITISHDA NUQSONI BOLGAN BOLALAR*****SAYDULLAYEVA RAYHONA YODGORJON QIZI.****ANDIJON DAVLAD PEDAGOGGIKA INSTITUTI. MAXSUS**PEDAGOGGIKA LOGOPEDIYA YONALISHI 1- KURS 102- GURUH TALABASI*

**ANNOTATSIYA;** *Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bolgan bolalar haqida tushuncha va bu kasallikni qaysi fan organishi hamda ularning kelib chiqish sabablari jumladan yurttimizda bunday bolalarga qanday sharoitlar yaratilayotganligi haqida malumot beriladi .*

**KALIT SO'ZLAR :** *eshitishda nuqsoni bolgan bolalar, surdopedagogika Eshitish azolari, nuqson, kasalliklar.*

**АННОТАЦИЯ;** *В данной статье дается представление о слабослышащих детях и о том, какая наука организует это заболевание, а также о причинах их возникновения, включая информацию об условиях, созданных для таких детей в нашей стране.*

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** *дети с нарушением слуха, педагогика глухих, Слуховые аппараты, дефекты, заболевания.*

**ANNOTATION;** *This article provides information about the concept of children with hearing impairment, the science that studies this disease, the causes of its occurrence, and the conditions that are created for such children in our country.*

**KEYWORDS:** *children with hearing impairments, surdopedagogy, Hearing organs, impairments, diseases*

**Surdopedagogika** (lot. surdus kar va pedagogika) – [defektologiya](#) tarmogʻi; kar yoki zaif eshituvchi bolalarni maxsus oʻqitish va tarbiyalash masalalarini ishlab chiqadi. S. ga kar yoki zaif eshituvchi bolalarni oʻqitish nazariyasi tarixi, kar va zaif eshituvchi bolalarning psixologik rivojlanish, oʻquv fanlarini oʻqitish, talaffuzni oʻrgatish va „lab bilan oʻqish“, mehnatga oʻrgatish, tarbiyaviy ishlar metodikalari kiradi. S. kar yoki zaif

eshituvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o'rganib, maxsus o'quv tarbiya jarayoni tuzilishining asoslarini, maxsus o'quv tarbiya muassasalarini tashkil etish tartiblarini ishlab chiqadi. Fan asoslarini o'rganish bilan zaif eshituvchi bolalarda og'zaki nutq shakllanib boradi. Zaif eshituvchilarga og'zaki nutqni o'rgatish uchun so'zlar talaffuz qilinganda nutq organlarining harakati ko'rsatiladi. Shu harakatlarga qarab zaif eshituvchilar tovush va so'zlarni ajratib olishga, ya'ni „labga qarab o'qishga“ o'rganadi. Nutq harakatlarini takrorlashga o'rgangan zaif eshituvchilar gapirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, karlar maxsus o'quv alifbosi – daktilologiyasidan foydalanib gapirishlari ham mumkin. Maxsus ta'lim sharoitida o'quvchilarda i. ch. faoliyatining malaka va ko'nikmalari hosil qilinadi va normal hayotga tayyorlanadi. S. otolaringologiya, akustika, logopediya, umumiy pedagogika, tilshunoslik, psixologiya, fiziologiya bilan uzviy bog'liq. S. bo'yicha ilmiy tadqiqotlar O'zbekistonda Toshkent pedagogika universitetining defektologiya fakultetida olib boriladi. Bola tug'ilganidan boshlab uning barcha sezgi organlari rivojlana boshlaydi. Sezgi organlari orqali bola tashqi muhitda bo'layotgan voqea-hodisalarni angelaydi va tushuna boshlaydi shu orqali bolada ko'nikma paydo bo'laveradi. Tashqi muhitdan informatsiya olib boshlaydi. Inson tashqi muhitdagi informatsiyaning 90 foizini ko'rish

orqali oladi. Ko'rish bu insonning birinchi o'rinda turuvchi sezgi o'rgani. Bola tug'ilganidan boshlab 11 kunligidan dunyoni oq qora fonda ko'ra boshlaydi. 40 kun o'tgandan so'ng boshqa ranglarni ham angelay boshlaydi. Ikkinchi o'rinda eshitish organi turadi. Eshitish orqali bolada tushuncha paydo bo'ladi. Bolalar 1 yoshga to'larto'lmas dada, aya, xola kabi ochiq bo'g'inli so'zlarni eshitib taqlid orqali ayta boshlaydi. Bolaning nutqini rivojlantirish uchun to'liq eshitish juda muhimdir. Kichkina bola eshitish yordamida tilning eng murakkab tizimini egallaydi; talaffuz qobiliyatlarini egallaydi; juda ko'p sonli so'zlarning tovush tarkibini, ulardan foydalanishni o'rganadi,

so'zlarning grammatik o'zgarishlarida va jummalarni qurishda mavjud bo'lgan ma'noni tushunishni o'rganadi. Nutq — murakkab ruhiy faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va

bolaning umuman barkamol bo‘lib o‘shiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo‘lib, atrofdagilarga taqlid etish yo‘li bilan rivojlanib boradi. Og‘zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizator ishtirok etadi.[3] Nutqni harakatga keltiruvchi

analizator eshituv analizatori bilan mahkam bog‘langan holda ishlaydi, eshituv analizatorining rivojlanish darajasi esa ko‘p jihatdan talaffuzga bog‘liq. Bola nutqning o‘shib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib

borish darajasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki eng muhimi — o‘z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so‘zlarning tuzilishini, tovush tarkibini farqlay olish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi. So‘z tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat Grammatik va leksik komponentlarning rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Logopedlar asosan bolada nuqtni shakllantirishga harakat qiladi. Eshitishida nuqsoni bor bolalar ham kar va qisman karlarga bo‘linadi. N. Neyman eshitish chastotalari maydoni yordamida qabul qilishiga ko‘ra 4 ga bo‘ladi: 1. chastotani qabul qiladiganlar 150-250 Gk bu bolalar bironta tovushni eshitmaydi. 2.125-250-500 Gk chastotani qabul qiladi. A va U harflarini ajrata oladilar. 3.125-250-500-1000 Gk 3-4 unililarni ajrata oladi. 4.125-2000 Gk yaqin va uzoq bo‘lmagan gaplarni eshitadi. Tanish gap va so‘z, unli va undoshni ajrata oladi.[3] Darajalarga bo‘ladigan bo‘lsak 3 ta darajaga bo‘linadi: 1-darajali 50 Dbdan oshmaydi. 1 metrda oshiqroq masofadagi so‘z va tovush balandligidagi gaplarni ajrata oladi.125-8000 Gk 2- darajali 70 Dbdan 1 metrdab kamroq masofada eshitadi.

3-darajali 73 Dbdan gap so‘zlar yetib borishi qiyinlashadi.

25 Dbdan eshitishi yo‘qola boshlaydi. 85-90 Db karlikka olib keladi. Eshitishida nuqsoni bor bolalarning kasalligining kelib chiqish sabablari: Eshitish buzilishlari bolalarda turli infeksiyon kasalliklar oqibatida yuzaga keladi. Meningit, skormotika, otit, gripp kasalliklarini infeksiyon-yuqumli kasalliklar qatoriga kiritish mumkin. Eshitish buzilishlari ichki, o‘rta, tashqi quloqlarni

shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Ichki quloq va quloq nervi shikastlangan bo'lsa, ko'p holatlarda karlik, agar o'rta qo'loq shikastlangan bo'lsa eshitish pasayishi kuzatiladi. Eshitishning yuqori chastotasi ham eshitish qobiliyatini pasayishiga olib kelishi mumkin. Bolada eshitish nuqsoni yuzaga kelishga xomiladorlikni noqulay davom etishi, onaning virusli kasalliklari ham muhim rol o'ynaydi (qizamiq, grip). Eshitish buzilishi sabablari eshitish sezgilarini tug'ma deformatsiyasi, eshitish nervining atrofi, ximik zaxarlanish, tug'ish davridagi travmalar, mexanik travmalar, kuchli ovoz ta'sirotlarining akustik ta'siroti bo'lishi mumkin. Eshitish buzilish o'rta qo'loqni o'tkir shamollashi oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Eshitishning qat'iy buzilishi burun va halqum (adenoid, xronik shamollashish) kasalliklari natijasida ham kuzatiladi. Bu kasalliklar chaqaloqlik chog'ida jiddiy xavf soladi. Eshitish pasayishiga ta'sir qiluvchi omillar orasida ototopsik preparatlar asosan antibiotiklar muhim o'ringa egadir. Eshituv funksiyasi buzilishi asosan chaqaloqlik davrida ko'p uchraydi. L.V.Neylan eshitish buzilishlari 70 %ni bolaning 2-3 yoshlarda kuzatilishini e'tirof etib o'tadi. Bola hayotining keyingi yillarida eshitishni pasayishi kam kuzatiladi. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalar ta'lim – tarbiyasida tushurib qoldirilgan yillar, yuqori sinflarida kompensatsiya qilinaolmaydi, buzulishlarni bartaraf qilinishi uchun uzoq muddat, kuch talab etadi. Ruxiy rivojlanish jarayonida birlamchi va ikkilamchi buzulishlar o'rtasidagi iaxsik munosabatlar buzuladi. Ta'lim jarayonidagi dastlabki to'siq – bu birlamchi nuqson sanaladi. Keyingi bosqichlarda psixik rivojlanishi buzulishdagi ikkilamchi nuqsonlar bolaning ijtimoiy adaptatsiyasiga to'sqinlik qila boshlaydi. Buzulishlarning barcha tiplarida bolaning ruxiy rivojlanishida o'ziga xos qonun – qoidalarni tasniflash mumkin. Buzulishning barcha tiplarida ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va qo'llash qobiliyatini pastligi kuzatiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ruhiy tuzilishlarini bartaraf etish, uning birlamchi nuqsonni ikkilamchi va uchlamchi nuqsonni yuzaga keltirilganligi maxsus tashkil etilgan ta'lim tarbiya jarayonida amalga oshadi. Eshitishda nuqsoni bor bolalarga gapirishni qisman bo'lsada logopedlar o'rgatadi. Ortikulyatsion apparat bilan qo'l baravar ishlaydi.

So'ngra bola qiynalmasdan asta sekin gapirishni yo'lga quyishi mumkin. Eshitish qobiliyatida nuqsoni bor bo'lgan bolalarning 60 % ini muolajalar ko'magida davolash mumkin, ammo qolgan 40 % bolaning eshitish qobiliyati maxsus apparatlar(eshitish vositalari va koxlear implantlar) yordamida sekin-astalik bilan tiklanib boradi.

Oktyabr-noyabr oylarida Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi va "Zamin" xalqaro jamoat fondi tomonidan "Men ham eshitishni xohlayman!" loyihasi doirasida Maktabgacha ta'lim hamda Sog'liqni saqlash vazirliklari bilan hamkorlikda [Qoraqalpog'iston Respublikasi](#), Jizzax, Sirdaryo, Toshkent, [Xorazm](#), [Samarqand](#), [Andijon](#), Namangan, [Farg'ona](#) viloyatlari hamda Toshkent shahridagi ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan jami 115 nafar eshitishda nuqsoni bor bo'lgan bolaga 228 ta yangi avlod simsiz eshitish apparatlari tarqatildi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda maxsus o'quv jihozlari va texnik vositalardan foydalanish bolaning shaxsiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va bunday apparatlar ularning eshitishdagi nuqsonini davolashda samarali hisoblanadi. Shuningdek, bunday maxsus apparatlar tarbiyachi hamda pedagoglarga bola bilan ishlash, bolaning esa, hech qanday to'siqsiz, jamiyatda o'z o'rnini topib ketishiga yordam beradi. 19 avgust kuni Toshkent shahridagi Diagnostika va rehabilitatsiya markazida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga eshitish moslamalarini tarqatish aksiyasi tadbiri bo'lib o'tdi. Aksiya doirasida kam ta'minlangan oilalardagi eshitishda nuqsoni bo'lgan 30 nafar bolaga eshitish moslamalari bepul taqdim etilmoqda. Aksiya Isroilning O'zbekistondagi elchixonasi, «Medel Aziya Servis» tibbiyot markazi va Smartgov.consulting kompaniyasi ijrochi direktori Aziza Umarova tomonidan tashkil etilgan. Eshitish moslamalarining 10 donasi Toshkent shahriga, qolgan 20tasi viloyatlarga tarqatildi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun yaratilayotgan sharoitlar ularning ta'lim olishi, ijtimoiy moslashuvi va 1. Ta'lim sohasida sharoitlar

- **Maxsus ta'lim muassasalari:**

- Kar va eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maxsus maktablar va maktab-internatlar faoliyati. Maxsus o‘quv dasturlari va individual yondashuv orqali ta’lim berish.

- **Inklyuziv ta’lim:**

- Oddiy maktablarda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan sharoitlar yaratish.

- Nutq terapevtlari va surdotarbiya mutaxassislari xizmatlarini taqdim etish.

- **Texnologiyalardan foydalanish:**

- Eshitish apparatlari va ko‘chma kochlear implantlardan foydalanish.

- Vizual materiallar, audiovizual uskunalar va subtitrli videodarsliklar.

- **Belgi tili o‘rgatish:**

- 

- Maxsus belgi tili va yozma muloqot usullarini ta’lim jarayoniga qo‘shish.

## 2. Sog‘liqni saqlash va tibbiy yordam

- **Eshitishni reabilitatsiya qilish:**

- Eshitish apparatlari va kochlear implantlar o‘rnatish bo‘yicha dasturlar.

- O‘rta quloq va eshitish nervi kasalliklarini davolash bo‘yicha maxsus xizmatlar.

- **Tibbiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash:**

- Bolalar psixologlari va psixoterapevtlar tomonidan reabilitatsiya jarayonlari.

## 3. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash

- **Ijtimoiy moslashuvni ta’minlash:**

- Ijtimoiy markazlarda moslashuv treninglari va muloqot kmalarini rivojlantirish.

- Jamiyatga moslashishga yordam beruvchi sport va madaniy tadbirlarda qatnashish.

- **Oilako‘nivi yordam:**

- Ota-onalar uchun eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash bo‘yicha treninglar va maslahatlar.

- Ota-onalar uchun belgi tili va maxsus pedagogik yondashuv usullarini o‘rgatish.

#### **4. Huquqiy va iqtisodiy yordam**

- **Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash:**

- Nogironlik bo‘yicha nafaqa va ijtimoiy imtiyozlar.

- Maxsus ta‘lim muassasalari va eshitish apparatlarining bepul taqdim etilishi.

- **Mehnat va bandlik imkoniyatlari:**

- Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar voyaga yetgach, ularga mos kasb-hunar o‘rgatish.

- Moslashtirilgan ish joylari yaratish va ularga bandlik kafolatini ta‘minlash.

#### **5. Madaniy va sport tadbirlari**

- Maxsus sport turlari (masalan, kar bolalar uchun sport federatsiyalari).

- Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun musiqiy, teatr va boshqa ijodiy faoliyat turlari.

Ushbu sharoitlar davlat siyosati va ijtimoiy tashkilotlarning sa'y-harakatlari orqali doimiy takomillashtirilmoqda. Bu bolalarning ijtimoiy hayotga to‘laqonli qo‘shilishi va individual salohiyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

Sattarov M. *Defektologiya: Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar ta‘limi*. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

Boboyeva D., To‘xtayeva M. *Maxsus pedagogika va psixologiya*. Toshkent: Sharq, 2021.

Vygotskiy L.S. *Defektologiya asoslari*. Moskva: Pedagogika, 1983.

Jalolov F., Axmedova N. “Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun inkluziv ta’lim modelini ishlab chiqish.” *Ilmiy pedagogika jurnali*, №3, 2022, 45-50-betlar.

Smirnova I.M. *Koklear implantatsiya va eshitish nuqsonini tuzatish texnologiyalari*. Sankt-Peterburg: LitRes, 2018.

UNICEF. “Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ta’lim imkoniyatlari.”  
<https://www.unicef.org> (26.11.2024-yilda ko‘rilgan)